

**GLOBAL MIGRATSIYA SHAROITIDA MIGRANTLAR
HUQUQLARI: XALQARO VA MILLIY KAFOLATLAR TAHLILI**

Xodjiyeva Maftuna Sherzodovna
Toshkent davlat Yuridik universiteti talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada xalqaro mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishga qaratilgan BMTning Migrant Ishchilar va Ularning Oila A'zolari Huquqlarini Himoya Qilish Konvensiyasi (ICRMW) hamda Xavfsiz, Tashkillashtirilgan va Qonuniy Migratsiya bo'yicha Global Kelishuv (GCM) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinadi. Mualliflar Tunisiyada mazkur Konvensiyaning ratifikatsiya qilinmaganligi sabablarini o'rganib, GCMning milliy qonunchilikni takomillashtirishdagi imkoniyatlarini ko'rsatadi. Tadqiqotda xalqaro-huquqiy manbalar, qabul qilingan siyosiy hujjatlar va davlat amaliyoti asosida taqqoslovchi tahlil olib borilgan. Natijada, GCM Tunisiyada Konvensiyani ratifikatsiya qilishdagi to'siqlarni yumshatish va migrantlar huquqlarini kengroq himoya qilishda muhim o'rin tutishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: migrantlar, huquq, xalqaro huquq, mehnat huquqi, ijtimoiy himoya, inson huquqlari, migratsiya siyosati.

**ПРАВА МИГРАНТОВ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ
МИГРАЦИИ: АНАЛИЗ МЕЖДУНАРОДНЫХ И НАЦИОНАЛЬНЫХ
ГАРАНТИЙ**

Ходжиева Мафтуна Шерзодовна
Студентка 3 курса факультета Частного права
Ташкентский государственный юридический университет

Аннотация: в данной статье анализируется взаимосвязь между Конвенцией ООН о защите прав всех трудящихся-мигрантов и членов их семей (ICRMW) и Глобальным договором о безопасной, упорядоченной и законной миграции (GCM). Авторы исследуют причины, по которым данная Конвенция не была ратифицирована в Тунисе, и показывают возможности

SJIF: 5.051

GCM для совершенствования национального законодательства. В исследовании используется сравнительный анализ на основе международно-правовых источников, принятых политических документов и государственной практики. В результате отмечается, что GCM может сыграть важную роль в смягчении препятствий для ратификации Конвенции в Тунисе и обеспечении более широкой защиты прав мигрантов.

Ключевые слова: права мигрантов, международная конвенция, ICRMW, GCM, Тунис, ратификация, национальное законодательство, международное право.

MIGRANT RIGHTS IN THE CONTEXT OF GLOBAL MIGRATION: ANALYSIS OF INTERNATIONAL AND NATIONAL GUARANTEES

Xodjiyeva Maftuna Sherzodovna

Student of Tashkent State University of Law

Abstract: *this article analyzes the interrelation between the UN International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families (ICRMW) and the Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration (GCM). The authors examine the reasons why the Convention has not been ratified in Tunisia and highlight the potential of the GCM in improving national legislation. The study employs a comparative analysis based on international legal sources, adopted policy documents, and state practice. The findings emphasize that the GCM may play a crucial role in reducing barriers to ratifying the Convention in Tunisia and in ensuring broader protection of migrant rights.*

Keywords: *migrant rights, international convention, ICRMW, GCM, Tunisia, ratification, national legislation, international law.*

XXI asrda globalizatsiya jarayonlari bilan bir qatorda xalqaro migratsiya hodisasi ham keng miqyosda rivojlanmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyo bo'yicha 280 milliondan ortiq kishi o'z yurtidan tashqarida yashamoqda, bu esa dunyo aholisini tahminan 3,5 foizini tashkil etadi. Migratsiya jarayonlari iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki rivojlangan davlatlar uchun ham dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu jarayonda migrantlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, ularni kamsitilishdan, ekspluatatsiyadan va huquqbuzarliklardan himoya qilish xalqaro hamjamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

Migrantlar huquqlari tushunchasi va ularning asosiy tamoyillari

Migrantlar huquqlari — bu inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, ular qayerda yashashidan qat'i nazar, har bir shaxsning asosiy erkinliklari va qonuniy manfaatlarini o'z ichiga oladi. Buyuk inson huquqlari himoyachisi Eleanor Roosevelt ta'kidlaganidek: “Inson huquqlari ularning yashash joyidan qat'i nazar, har bir shaxs uchun tengdir.” Bugungi globallashuv jarayonida bu fikr ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki migratsiya nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy jarayon, balki inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq masaladir. BMTning sobiq bosh kotibi Kofi Annan ham migratsiya haqida shunday degan: “Migratsiya – bu faqat odamlarning joy almashishi emas, balki ularning huquqlarini ta'minlash masalasi hamdir.”¹ Ushbu so'zlar migrantlarning huquqiy kafolatlari masalasining naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Shunday ekan, migrantlarning huquqlari masalasi bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, jumladan, O'zbekiston uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. BMTning 1948-yilgi Inson

¹ Kofi Annan, Speech at the UN General Assembly on Migration, 2005.
SJIF: 5.051

huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda qayd etilganidek, migrantlar ham boshqa insonlar kabi yashash, mehnat qilish, ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish va kamsitilmaslik huquqiga egadirlar. Migrantlar huquqlarini ta'minlashda quyidagi asosiy tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Kamsitilmaslik (millati, tili, dini yoki jinsidan qat'i nazar tenglikni ta'minlash);

Ijtimoiy adolat (mehnat sharoitlari, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati);

Huquqiy himoya (huquqbuzarlik va ekspluatatsiyadan himoya qilish mexanizmlari).

Migrantlar huquqlarini ta'minlash nafaqat xalqaro me'yorlar, balki milliy qonunchilik va davlatlar o'rtasidagi hamkorlik orqali ham amalga oshiriladi. Amaliyotda migrantlar duch keladigan muammolar ularning huquqlarini samarali amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Bunday muammolar qatoriga huquqiy savodxonlikning pastligi, ijtimoiy himoya mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi, noqonuniy migratsiya oqibatlari va ayrim hollarda mehnat shartlarining buzilishi kiradi. Jumladan, ko'plab migrant ishchilar xorijda mehnat shartnomalarisiz ishlashadi. Bu esa ularga nisbatan ekspluatatsiya, ish haqi to'lanmasligi, majburiy mehnat yoki turar joy bilan ta'minlanmaslik kabi huquqbuzarliklarga sabab bo'lmoqda. Shu sababli xalqaro tashkilotlar va davlatlar migrantlarning qonuniy mehnat faoliyatini rag'batlantirish, ularni huquqiy axborot bilan ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Amaliy tajribaga nazar tashlasak, ko'plab davlatlar migrantlarni himoya qilish uchun maxsus davlat dasturlari va

agentliklar tashkil etgan. Masalan, ayrim mamlakatlarda mehnat migrantlariga bepul huquqiy maslahat beruvchi markazlar faoliyat yuritadi, xalqaro hamkorlik doirasida ikki tomonlama shartnomalar asosida migrantlarning huquqlari kafolatlanadi. O'zbekiston tajribasiga to'xtaladigan bo'lsak, so'nggi yillarda mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, 2020-yilda tashkil etilgan Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi orqali xorijga ishlash uchun ketayotgan fuqarolarga huquqiy, moddiy va tashkiliy yordam ko'rsatilmoqda. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Koreya, Turkiya kabi davlatlar bilan ikki tomonlama shartnomalar imzolangan bo'lib, ular O'zbekiston fuqarolarining huquqiy maqomini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shunday qilib, amaliyot shuni ko'rsatadiki, migrantlar huquqlarini to'laqonli ta'minlash uchun xalqaro va milliy darajadagi huquqiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish hamda migrantlarning o'z huquqlari to'g'risidagi xabardorligini oshirish zarur.

Migrantlar huquqlarini himoya qilishda xalqaro huquqiy hujjatlar alohida ahamiyatga ega.

Jumladan:

BMTning 1990-yilda qabul qilingan "Barcha mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasi" migrantlarning asosiy huquqlarini belgilaydi.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tomonidan qabul qilingan konvensiyalar migratsiya jarayonida mehnat huquqlarini kafolatlaydi.

Yevropa Ittifoqi va boshqa mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlari ham migrantlarni ijtimoiy ta'minlash va huquqiy himoya qilish masalalariga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi ham migratsiya masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Respublikada tashqi mehnat migratsiyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular fuqarolarning chet davlatlarda qonuniy ishlashi, ijtimoiy huquqlarini himoya qilishi hamda ularni qayta ijtimoiylashtirish mexanizmlarini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, O'zbekiston BMT va XMTning qator xalqaro konvensiyalarini imzolagan. Migrantlar huquqlarini himoya qilish sohasida mavjud qonunchilik bazasi yetarli darajada rivojlangan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Ulardan eng asosiylari quyidagilardan iborat:

- Huquqiy savodxonlikning pastligi. Ko'plab migrantlar xorijga chiqishdan oldin o'z huquq va majburiyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emas. Bu esa ularni mehnat shartnomalarisiz ishlashga, firibgarlik qurboniga aylanishga va ijtimoiy himoya tizimidan chetda qolishga olib keladi.
- Noqonuniy migratsiya. Migratsiya jarayonlarining katta qismi noqonuniy asosda amalga oshiriladi. Bu esa migrantlarning huquqiy maqomini yanada zaiflashtiradi va ular ustidan turli ekspluatatsiya shakllarining kuchayishiga sabab bo'ladi.
- Ijtimoiy himoya tizimining yetarli emasligi. Xorijda ishlayotgan migrantlarning ko'pchiligi tibbiy xizmatlar, ijtimoiy sug'urta va pensiya tizimidan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Bu esa ularning asosiy insoniy huquqlarining buzilishiga olib kelmoqda.
- Diskriminatsiya va kamsitishlar. Ayrim davlatlarda migrantlar millati, dini yoki tiliga ko'ra kamsitilishiga oid holatlar kuzatilmoqda. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyasini qiyinlashtiradi.

BMTning Xalqaro mehnat tashkiloti sobiq bosh direktori Guy Ryder ta'kidlaganidek: "Migratsiya inson huquqlarini poymol qilmasligi, balki inson qadr-qimmatini yanada yuksaltirishi kerak"². Bu fikr shuni anglatadiki, migratsiya jarayonida huquqiy va ijtimoiy himoya mexanizmlari mukammal bo'lishi lozim. Aks holda, mehnat migratsiyasi jamiyat uchun iqtisodiy foyda keltirsa-da, individual insonlar hayotida jiddiy ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish va mehnat migrantlarining huquqlarini ishonchli himoya qilish maqsadida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

1. Migrantlarni xorijga chiqishdan oldin huquqiy va ijtimoiy jihatdan tayyorlashni kuchaytirish, bu borada maxsus o'quv markazlari va treninglar tashkil etish.
2. Davlatlararo ikki va ko'p tomonlama shartnomalarni kengaytirish orqali migrantlarning huquqiy maqomini mustahkamlash.
3. Migrantlar uchun ijtimoiy sug'urta va tibbiy xizmatlardan foydalanish mexanizmlarini yaratish, bunda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish.
4. Migrantlar huquqlarini buzilishiga qarshi kurashishda xalqaro monitoring mexanizmlarini kuchaytirish.
5. Ijtimoiy ongda migrantlarga nisbatan diskriminatsiyani kamaytirish va bag'rikenglikni oshirish maqsadida keng ko'lamli targ'ibot va ta'limiy dasturlarni amalga oshirish.
6. O'zbekiston elchixonalari va konsulliklari huzurida migrantlar uchun 24/7 ishlaydigan ishonch telefonlarini joriy etish

² Guy Ryder, ILO Reports on Migrant Workers, 2020, s.12.
SJIF: 5.051

Shunday qilib, muammolarni hal qilish bo'yicha taklif etilgan chora-tadbirlar migrantlarning huquqlarini xalqaro standartlarga muvofiq ta'minlashga va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qiladi. Migrantlarning huquqlari va ijtimoiy himoyasi global mehnat migratsiyasining samarali va barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish hamda migrantlarning huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash va ekspluatatsiyani kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ikki va ko'p tomonlama shartnomalarni kengaytirish hamda diskriminatsiyaga qarshi ta'limiy dasturlarni amalga oshirish migratsiya jarayonini inson qadr-qimmatini yuksaltiruvchi, ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi tizimga aylantiradi. Shu tariqa, mazkur chora-tadbirlar nafaqat migrantlarning huquqlarini himoya qiladi, balki milliy va global miqyosda mehnat migratsiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Peter Sutherlandning fikricha 'Global migratsiya iqtisodiy rivojlanish va inson huquqlarining himoyasini birlashtiruvchi asosiy kuchdir³', shuning uchun mazkur chora-tadbirlar nafaqat migrantlarning huquqlarini himoya qiladi, balki milliy global miqyosda mehnat migratsiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

³ Peter Sutherland, Global Trade and Migration, 2019, s.45.
SJIF: 5.051

1. United Nations. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families (ICRMW). New York: UN, 1990.
2. United Nations. Global Compact for Safe, Orderly and Regular Migration (GCM). New York: UN, 2018.
3. International Labour Organization (ILO). Conventions and Recommendations on Migrant Workers. Geneva: ILO, 1990–2022.
4. BMT. Universal Declaration of Human Rights. New York: UN, 1948.
5. BMT. International Covenant on Civil and Political Rights (ICCPR). New York: UN, 1966.
6. Annan, K. Migration and Human Rights. UN Speeches, 2005–2007.
7. Ryder, G. ILO on Migrant Worker Protection. ILO Reports, 2012–2022.
8. Eleanor Roosevelt. Human Rights Principles and Equality. New York: UN, 1948.
9. OECD / International Migration Reports. Labour Migration Trends and Policies. Paris: OECD, 2019–2022.